



Nurullayeva U.N.

«Oila va xotin-qizlar» ilmiy-tadqiqot instituti tayanch doktoranti

e-mail: nurullayevaumida649@gmail.com

XOTIN-QIZLARNING IJTIMOY KAYFIYATI SOTSIOLOGIK TAHLIL OBYEKTI SIFATIDA

Annotatsiya. Mazkur maqolada xotin-qizlar ijtimoiy kayfiyatini sotsiologik jihatdan o'rganish va uning metodologiyasini yaratishning dolzarbligi, mahalliy va xorijiy olimlar ishlari ko'rib chiqilgan o'ziga xos tomonlari atroflicha yoritilgan. Shu bilan birga, ijtimoiy kayfiyat tushunchasining mohiyati, xotin-qizlar kayfiyatini o'rganishning asosiy jihatlaridan kelib chiqqan holda uni baholash ko'rsatkichlari bo'yicha xulosalar berilgan.

Tayanch tushunchalar: ijtimoiy o'zgarishlar, jamiyat va oila barqarorligi, sotsionomik nazariya, ijtimoiy kayfiyat, to'liq tamoyili, xotin-qizlar, xotin-qizlarning himoyalanganlik darajasi, hayotiy maqsadlari va faolligi.

Аннотация. В данной статье освещены важность социологического изучения социального настроения женщин и создания его методологии, конкретные аспекты, рассмотренные в работах отечественных и зарубежных ученых. При этом раскрывается сущность понятия социального настроения, исходя из основных аспектов изучения женского настроения, даются выводы по оценочным показателям.

Ключевые слова: социальные изменения, стабильность общества и семьи, социальное настроение, принцип волны, женщины, уровень защищенности женщин, их жизненные цели и активность.

Annotation. This article highlights in detail the importance of a sociological study of the social mood of women and the creation of its methodology, specific aspects considered in the works of domestic and foreign scientists. At the same time, the essence of the concept of social mood is revealed, based on the main aspects of the study of women's mood, conclusions are given on the estimated indicators.

Keywords: social changes, stability of society and family, social mood, wave principle, women, level of protection of women, their life goals and activity.

Kirish. Sotsiologiya fanida ijtimoiy kayfiyat ijtimoiy-demografik guruhlarining ma'lum bir davrdagi his-tuyg'ulari va ongining ustuvor tomonlarini aniqlash maqsadida o'rganiladi. Mazkur yondashuv sotsionomika nazariyasi negizida shakllangan bo'lib, u ijtimoiy kayfiyatning jamiyatdagi munosabatlar va harakatlarga ta'sirini tadqiq qiladi. Bunda ijtimoiy kayfiyat ijtimoiy xulq-atvorning siyosat, madaniyat, moliyaviy bozorlar va iqtisodiyot kabi sohalaridagi umumiy mazmuni hamda xarakterini qanday tartibga

solishini tushunish muhim ahamiyatga ega. Uning doirasida aholi va turli ijtimoiy-demografik guruhlar kayfiyatini o'rganish bo'yicha maxsus tadqiqotlar olib boriladi. Mazkur tadqiqotlar doirasida odatda kayfiyatning shakllanish mexanizmlari, shartlari, jamiyat hayotining turli sohalari (siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy) bilan o'zaro ta'siri hamda namoyon bo'lishi alohida tahlil qilinadi. Sotsionomik nazariya tarafdorlari hozirgi kun, o'tmish va kelajakdagi tendensiyalar nuqtayi nazaridan moliya, makroiqtisodiyot, siyosat, demografiya

va inson ijtimoiy harakatining boshqa sohalarini modellashtiradilar. Xotin-qizlarning kayfiyatini o'rganish orqali umumiy tarzda ularning jamiyatning muhim ijtimoiy-demografik guruhi sifatida kelajakdagi xatti-harakatlari, maqsadlarini ilmiy bashorat qilish hamda ularni qo'llab-quvvatlash maqsadida istiqboldagi siyosat yo'nalishlarini aniqlash imkonini beradi.

Asosiy qism. Murakkab tuzilishi va doimiy rivojlanishi bilan ajralib turadigan zamonaviy jamiyat turli ziddiyatlarga to'la. Butun dunyoda kuzatilayotgan global jarayonlar, jamiyatdagi ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy sohalaridagi jadal transformatsiyalar jamoatchilik fikri va kayfiyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Ijtimoiy kayfiyat aholining jamiyatda kechayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy jarayonlarni idrok etishi, kishilarning o'z moddiy va rasmiy mavqeyini anglashining umumiy ko'rsatkichlaridan biri bo'lgani uchun sotsiologik jihatdan tadqiq qilinishi muhim ahamiyatga ega. Xotin-qizlar ijtimoiy kayfiyatini o'rganishning dolzarbligi jamiyat va oilalar barqarorligini saqlash, farzandlarning ijobiy ijtimoiylashuvini ta'minlash, ham ruhan, ham jismonan sog'lom avlodlarni yetkazib berish bilan asoslanadi.

Ma'lumki, yurtimizda xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, huquqlarini kafolatlash, ularga yangi imkoniyat va imtiyozlar masalalari davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib kelmoqda. So'nggi yillarda qabul qilingan qator qonun hujjatlari, jumladan, davlatimiz rahbarining xotin-qizlar huquqlarini ta'minlash, ayollarni zo'ravonlikdan himoya qilish, ular o'rtasida tadbirkorlikni rivojlantirish hamda maqomini kuchaytirish to'g'risidagi farmon va qarorlari mazkur yo'nalishda olib borilayotgan davlat siyosatining mazmun-mohiyatini belgilab beradi.

Sh.M.Mirziyoyevning 2019-yil iyun oyida Oliy Majlis Senatida so'zlagan nutqida: "Meni kishilarimizning ongida paydo bo'lgan stereotip ko'p o'ylantiradi. Odatda biz ayolni, avvalambor, ona, oila qo'rg'onining qo'riqchisi sifatida hurmat qilamiz. Bu, shubhasiz, to'g'ri. Ammo bugun har bir ayol oddiy kuzatuvchi emas, balki mamlakatda amalga oshirilayotgan demokratik o'zgarishlarning faol va tashabbuskor ishtirokchisi ham bo'lishi

kerak!'", – deya alohida ta'kidlagani mamlakatda xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha olib borilayotgan islohotlar ko'lamini yana bir bor namoyon etadi va bu jarayonni o'rganish ehtiyojini asoslaydi.

Shu bilan birgalikda, oilaviy ajrimlar, erta nikoh va tug'ish, ayollar mehnat migratsiyasi, oiladagi tazyiq va zo'ravonlik, xotin-qizlar o'rtasidagi jinoyatchilik, o'z joniga qasd qilish kabi holatlarning kuzatilishi, ayrim holatlarda esa sonining ortishi jamiyatda xotin-qizlarning ijtimoiy holati, himoyalanganlik darajasi, imkoniyatlari va muammolarini har tomonlama muntazam ravishda o'rganish lozimligini namoyon qiladi.

Xotin-qizlar ijtimoiy kayfiyatini o'rganish metodologiyasini ishlab chiqish hamda amaliy muammolarining yechim yo'llarini ko'rsatish orqali O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi, PF-60-son, 2022-yil 1-martdagi "Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-81-son, 2022-yil 7-martdagi "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-87-son Farmonlari hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2022-yil 20-dekabrda Oliy Majlisga va O'zbekiston xalqiga yo'llagan Murojaatnomasi hamda faoliyatga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan keng ko'lamli, strategik chora-tadbirlarni amalga oshirishga muayyan darajada ko'maklashadi.

Aholi ijtimoiy kayfiyatini o'rganish metodologiyasi mazkur tushunchaning kelib chiqish tarixi va interpretatsiyasidan boshlanadi. Ijtimoiy kayfiyat tushunchasining rivojlanish tarixi antik davr olimlarining ishlariga borib taqaladi. Dunyo miqyosida ko'radigan bo'lsak, jamoatchilik fikrini o'rganish, baholash masalasi doimiy ravishda olimlar nazarida bo'lib kelgan. *Sokrat, Epikur*, keyinchalik *Dekart, Spinoza, Gegel* kabi antik davr mutafakkirlari o'z asarlarida inson kayfiyatining o'zgarishi, unga ta'sir ko'rsatuvchi sabablarni o'z

¹ Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis Senatining 20-yalpi majlisidagi nutqi. <https://kun.uz/news/2019/06/22/shavkat-mirziyoyevning-oliy-majlis-senatining-20-yalpi-majlisidagi-nutqi>

dunyoqarashi va davr ruhi nuqtayi nazaridan talqin qilishgan.

Ijtimoiy kayfiyatni ilmiy o'rganish konsepsiyasi esa XIX asrning birinchi yarmida ilmiy muomalaga kiritilgan bo'lib, xorijiy olimlar tomonidan amaliyotda keng qo'llana boshlangan. Bu paytda ommaning ijtimoiy kayfiyatini psixologik nuqtayi nazardan o'rganishga ko'proq urg'u berilgan. Shunday bo'lsa-da, *P.A.Sorokin, G.Lebon, G.Tard, K.Xart, V.Lippman, V.Bexteryov, P.Viktorov, V.Klyuchevskiy, G.Plexanov* kabi sotsiolog olimlar jamoatchilik fikrini va muammolarini tadqiq qilishgan. Ularning asarlari ijtimoiy kayfiyatni o'rganish metodologiyasining ilk asoslarini tashkil etadi. Aynan shu davrdan boshlab turli fanlarda "jamoatchilik kayfiyati", "guruh kayfiyati", "omma kayfiyati" kabi bir qator tushunchalar qo'llangan va o'z mohiyatiga ko'ra ijtimoiy kayfiyat tushunchasiga yaqinlasha borgan. Bugungi kunda ko'p holatlarda ular sinonim sifatida o'xshash ma'noni ifodalaydi.

Mahalliy ilmiy adabiyotlar tahlili natijasida ularning aksariyatida aynan ijtimoiy kayfiyat tushunchasi qo'llanmagan bo'lsa-da, uning mohiyati jamoatchilik fikrini o'rganish va xotin-qizlarning muammolarini tadqiq etish davomida ochib berilganini namoyon qildi. Shuning uchun O'zbekistonda aholining ijtimoiy kayfiyati 1990-yillardan boshlab "Ijtimoiy fikr" markazi, Strategik va mintaqaviy tadqiqotlar instituti, Fuqarolik jamiyatini monitoring qilish markazi kabi davlat hamda nodavlat tashkilotlari, mustaqil izlanuvchilar tomonidan turli tadqiqotlar davomida o'rganilgan, deya aytish mumkin. Mamlakatimizdagi ilmiy, sotsiologik adabiyotlar va tahliliy ma'lumotlarda jamoatchilik kayfiyati, xotin-qizlar kayfiyati, aholi kayfiyati kabi tushunchalarni ba'zan uchratish mumkin.

Mahalliy olimlardan *R.A.Ubaydullayeva, N.S.Aliqoriyev* iqtisod va mehnat sotsiologiyasi yo'nalishida aholining mehnatdan qoniqish darajasi hamda unga ta'sir qiluvchi omillarni o'rganishgan. *O.B.Atamirzayev, M.X.Ganiyeva* millatlararo munosabatlar va tolerantlik aspekti ostida jamoatchilik fikrini tadqiq etgan holda tahliliy ma'lumotlar tayyorlashgan. *R.T.Ubaydullayeva* refleksiv sotsiologiya yo'nalishida ish olib borgan bo'lib, refleksiyani shaxsning jamiyatga moslashish

shakli sifatida talqin qilgan. *B.A.Farfiyev* islom dini ratsionalizmining aholi dunyoqarashi va xulq-atvorida namoyon bo'lish shakllarini o'rgangan. Yuqorida nomi keltirilgan hamda boshqa bir qator mahalliy olimlarimizning ishlarida bevosita ijtimoiy kayfiyat iborasi qo'llanmagan bo'lsa-da, ko'tarilgan aksariyat masalalar aholi va uning turli guruhlari ijtimoiy kayfiyatiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar hamda baholash kriteriylarining aniqlanishi uchun asos bo'ladi.

Bugungi kunda Yevropa mamlakatlari va AQShda ko'pincha ijtimoiy-iqtisodiy yoki siyosiy tadqiqotlar davomida aholining kayfiyati jamiyatdagi biror-bir hodisa yoki o'zgarishga bo'lgan munosabat, moslashish darajasi va xayrixohligini o'rganishga (*sotsionomik nazariya*) ko'proq urg'u beriladi. Masalan, marketing tadqiqotlarda mijozlarning turli brendlar va mahsulotlarga nisbatan munosabatini aniqlash asosida strategik rejalar ishlab chiqiladi. Siyosatda amalga oshirilayotgan islohotlarning aholi tomonidan qabul qilinishi, munosabati va xayrixohligi asosida keyingi istiqbolli rejalar tuziladi. Mazkur nazariyaning asoschisi **Robert Prekter** bo'lib, u o'zining "Sotsionomika: tarix va ijtimoiy bashorat fani" nomli asarida R.Elliottning to'liq nazariyasini ijtimoiy hodisalarning rivojlanishiga nisbatan ham qo'llash mumkinligini isbotlashga harakat qilgan.

Ma'lumki, **Ralf Nelson Elliott** tomonidan ishlab chiqilgan to'liq tamoyili moliyaviy bozor indekslarining narx harakatini va moliyaviy bozorning rivojlanishini bashorat qilish maqsadida yaratilgan. U to'liqlarning alohida elementlari orasidagi nisbatlar raqamlar bilan tasvirlanganiga e'tibor qaratib, to'liqning uzunligini bilgach, keyingi to'liqning davomiyligini taxmin qilish mumkin, degan fikrni ilgari surgan². Mazkur tamoyil sotsiologiyada sotsionomika nazariyasi doirasida R.Prekter tomonidan ijtimoiy kayfiyatning rivojlanishi va namoyon bo'lishiga nisbatan ishlatiladi.

Muallifning o'zi aytganidek, "Elliott to'liqini tamoyilidan nafaqat fond bozorida, balki odamlar qanday fikrlashi, ular qanday harakat qilishlari, ularni nimaga undashlari va buning sabablari nimada ekanligini tushunish uchun ham foydalanish

² Волновая теория Эллиотта. <https://ru.wikipedia.org/wiki/>

mumkin³”. R.Prechter ijtimoiy kayfiyatning keng tarqalgani, qudrati va dinamik o’zgaruvchanligi xususiyatlaridan hayratda qolgan. Olimning fikricha, uning barcha jamoaviy xatti-harakatlarga ta’sir qilishi inson tabiatida chuqur ildiz otganligi bilan izohlanadi. 1979-yilda R.Prechter “jamiyatdagi moliyaviy, makroiqtisodiy va siyosiy xulq-atvorni ijtimoiy kayfiyat boshqaradi (aksincha, emas)”, degan g’oyani ilgari surgan⁴. U ijtimoiy kayfiyatni madaniy tendensiyalarning harakatlantiruvchisi sifatida baholagan.

Hozirda R.Prechter har oylik “Elliott Wave Theorist” jurnalida ijtimoiy va iqtisodiy tendensiyalarga oid sharhini nashr etadi hamda turli moliyaviy va fond bozorlari tahlillarini nashr etuvchi shu nomdagi kompaniya prezidenti hisoblanadi.⁵ R.Prechter bu ishni Ijtimoiy iqtisod instituti tadqiqot bo’limining ijrochi direktori lavozimi bilan birlashtiradi. U to’lqinlar nazariyasi va sotsionomika bo’yicha 13 ta kitob muallifi sifatida Elliott nazariyasining sotsiologiyadagi ahamiyati Nyutonning fizikadagi ishi kabi muhim ekanligiga ishonch hosil qildi. Shundan kelib chiqqan holda ijtimoiy kayfiyat ijtimoiy hodisalarni belgilab bersa-da, bu hodisalardan mustaqil ravishda o’zgaradi, ya’ni doimiy ravishda ijtimoiy kayfiyat ortidan voqealarning tabiati ergashib yuradi, degan xulosaga keldi.

G’arb davlatlarida mashhur bo’lgani Ijtimoiy psixologik yo’nalish vakillari ijtimoiy kayfiyat va his-tuyg’ular odatda insonning samarali faoliyati hamda jamiyatda omon qolish imkoniyatini oshirishga yordam berishadi, deb o’ylashadi⁶. **H.Bless, G.Boner, N.Schwarz** kabi olimlarning fikricha, aynan yoqtirmaslik hissi tufayli inson ayrim amallardan o’zini tiyish tajribasi tufayli kasallikni keltirib chiqarishi mumkin bo’lgan vaziyatlardan qochishga, o’z salomatligini saqlashga erishadi.

³ The Deep Dynamics of Social Mood. On February 8, 2014. <http://www.socialmood.net/articles/the-deep-dynamics-of-social-mood>

⁴ Prechter, Robert R.Jr. (August 1979). “What’s Going On?” *The Elliott Wave Theorist*. Elliott Wave International. Gainesville, GA. Reprinted in *Pioneering Studies* (2003).

⁵ Роберт Пректер. https://www.masterforex-v.org/wiki/robert_prechter.html

⁶ Bless, H., Bohner, G., Schwarz, N. Mood and persuasion: A cognitive response analysis. *Personality and Social Psychology Bulletin*, 16(2), (1990). p 331–345. <https://doi.org/10.1177/0146167290162013>

Shuningdek, ijtimoiy me’yorlarni buzganda sharmandalikdan cho’chishi tufayli vaziyatlarga tog’ri munosabatda bo’lishga harakat qiladi⁷.

Zamonaviy jamiyatning transformatsiyasi sharoitida ijtimoiy kayfiyat mezonlarini, uning turli xil ijtimoiy va yosh guruhlarida namoyon bo’lish xususiyatlarini **I.I.Osinskiy, Z.A.Butuyeva**⁸ kabi olimlar o’rganishgan. Ularning fikriga ko’ra, ijtimoiy kayfiyatni tadqiq etishda o’ziga xos kriteriyalar to’plamidan foydalanish lozim bo’lib, mazkur parametrlarning har biri ma’lum empirik ko’rsatkichlarni o’z ichiga qamrab oladi. Ularga ijtimoiy faollik, moliyaviy holat, salomatlik, identifikatsiya, ijtimoiy qulaylik, emotsional-hissiy soha, individual shaxsiy xususiyatlar va boshqalar kirishi mumkin.

Jamiyatdagi turli guruhlarining ijtimoiy kayfiyati va hayotidan qoniqish darajasiga ta’sir ko’rsatuvchi omillar farqlanishini asoslagan holda **O.A.Aslanova**⁹ (keksalar), **O.A.Lebedenko**¹⁰ (talabalar), **A.A.Dargan**¹¹ (nuqsoni bor insonlar), **M.V.Klitsenko**¹² (shahar aholisi) kabi olimlar tomonidan turli ijtimoiy-demografik toifalar uchun dominant omillar va ularning ijtimoiy portreti

⁷ Megan Oaten I, Richard J Stevenson, Trevor. Disgust as a disease-avoidance mechanism. *Psychol Bull*. 2009 Mar; p 135(2):303-21. doi: 10.1037/a0014823.

⁸ Осинский И.И., Бутуева З.А. Социальное самочувствие: понятие, факторы формирования и показатели измерения. Вестник Бурятского Государственного Университета. 14/2015. С. 39-40. <https://cyberleninka.ru/article/n/sotsialnoe-samochuvstvie-ponyatie-factory-formirovaniya-i-pokazateli-izmereniya>

⁹ Асланова О.А. Социальное самочувствие пожилых людей в регионе: социологическая оценка (на примере уакраснодарского края). Автореферат. Кандидат социологических наук. Москва – 2012. – 23 с.

¹⁰ Лебеденко О.А. Социальное самочувствие студентов – социальнх степендиантов в условиях модернизации Российского общества: социальное – философский анализ. Автореферат. Кандидат философских наук. Ростов-на Дону-2011. – 23 с.

¹¹ Дарган А.А. Социальное самочувствие людей с инвалидностью : автореферат дис. ... кандидата социологических наук: 22.00.04 / Дарган Анна Александровна; [Место защиты: Сев.-Кавказ. федер. ун-т]. – Ставрополь, 2013. – 25 с.

¹² Клиценко М.В. Социальное самочувствие населения города Хабаровска: диссертация ... кандидата социологических наук: 22.00.04 / Клиценко Максим Вадимович; [Место защиты: Тихоокеанский государственный университет]. – Хабаровск, 2017. – 153 с.

yaratilgan. **I.V.Romanova**¹³ning fikricha, nafaqadagi yolg'iz xotin-qizlarning ijtimoiy kayfiyatining ijobiy yoki salbiy bo'lishiga, eng avvalo, iqtisodiy omillar, shaxsning qadriyatlar tizimi, dunyoqarashi, shaxsiy va kasbiy o'sishga bo'lgan ehtiyoji ta'sir ko'rsatadi.

Olimlarning bergan xulosalari natijasida quyidagi ta'rifni berish mumkin: *ijtimoiy kayfiyat* ijtimoiy o'zaro ta'sir natijasida yuzaga keladigan odamlarning umumiy ruhiy holati bo'lib, u guruhdagi odamlarning ma'lum his-tuyg'ularga, e'tiqodlarga va harakatlarga moyilligini ko'rsatadi. U ongsiz tarzda insonlarda namoyon bo'ladi va ular buni yodda saqlab qolishmaydi, balki endogen tarzda (ichki omillar ta'sirida) tartibga solinadi¹⁴. Sotsionomik nazariya shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy kayfiyat ijtimoiy hodisalarning mohiyatini belgilaydi.

Ijtimoiy kayfiyat ijtimoiy ongning fenomeni sifatida ijobiy yoki salbiy tomonga og'ishi mumkin. Ijobiy jamoatchilik kayfiyati hukm surgan davrlarda odatda qimmatli qog'ozlar narxining ko'tarilishi, mansabdor shaxslarning qayta lavozimiga saylanishi, tinchlik, deregulyatsiyaning kuchayishi kabi bir qator ijtimoiy hodisalar namoyon bo'ladi. Salbiy ijtimoiy kayfiyat davrlarida esa aksincha, qimmatli qog'ozlar narxining tushishi, amaldorlarning qayta saylanmasligi, kelishmovchiliklar, tartibga solishning kuchayishi kabi turli xil ijtimoiy hodisalar ustunlik qiladi.

Sotsiologiyada ijtimoiy kayfiyat orqali aniq hodisalar yoki aniq odamlarning harakatlari emas, balki sodir bo'ladigan hodisalarning umumiy turi aniqlanadi, modellashtiriladi. Masalan, ijtimoiy nazariya salbiy ijtimoiy kayfiyat davrida dahshatli filmlar ko'proq mashhur bo'lishini bashorat qiladi. Biroq ma'lum bir kinostudiya qaysidir dahshatli filmni ishlab chiqarishini yoki biron-bir aniq shaxs shu filmni mahalliy kinoteatrda ko'rishini aniq ayta olmaydi.

¹³ Романова И.В. Социальное настроение одиноких женщин посттрудового периода жизни (социологическое исследование на территории забайкалья) Вестник ЧитГУ № 10 (77) 2011. – С 124. <https://cyberleninka.ru/article/n/sotsialnoe-nastroenie-odinokih-zhenschin-posttrudovogo-perioda-zhizni-sotsiologicheskoe-issledovanie-na-territorii-zabaykalya>

¹⁴ Social mood. Socionomic theory. <https://socioconomics.net/2011/04/socionomic-causality/>

Ko'pincha sotsiologik tadqiqotlarda tanlangan obyekt bir emas, balki bir nechta ko'rsatkichlar orqali o'rganiladi. Masalan, xotin-qizlarning ijtimoiy kayfiyati ularning psixo-emotsional qo'llab-quvvatlanishi, bo'sh vaqtining unumli taqsimlanishi, iqtisodiy holati kabi bir qancha ko'rsatkichlar asosida tadqiq qilinishi mumkin. Alohida ko'rsatkichlardan xotin-qizlar ijtimoiy kayfiyatining umumiy darajasini aks ettiradigan yagona ko'rsatkich yaratiladi. U barcha indikatorlar umumiy yig'indisining o'rtachasi sifatida aniqlanishi mumkin. Ko'rsatkichlarning har biri, umumiy holatda, boshqalaridan mustaqil bo'lsa-da, birgalikda mazkur ijtimoiy-demografik toifaning umumiy kayfiyatini baholab beradi.

Xulosa. Xotin-qizlarning ijtimoiy kayfiyatini sotsiologik tadqiqot obyekti sifatida o'rganish va baholashning dolzarbligi quyidagilar bilan izohlanadi:

birinchidan, jamiyat muvozanatiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy deviatsiyalar va o'zgarishlarning sabablarini aniqlash, tushuntirish, oldini olish, bartaraf etish, hal etish maqsadida (xotin-qizlar) ijtimoiy kayfiyatni tadqiq etish jamiyat barqarorligining muhim omili sanaladi;

ikkinchidan, bugungi kunda jamiyatimizda xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida olib borilayotgan islohotlarning samaradorligini, ularga nisbatan xotin-qizlarning hayrixohlik va moslashuvchanlik darajasini aniqlash orqali istiqboldagi siyosat yo'nalishlarini takomillashtirish imkoniyati yaratiladi;

uchinchidan, mahalliy olimlar tomonidan yaratilgan ilmiy adabiyotlarda jamoatchilik fikriga ta'sir ko'rsatuvchi omillar, unga aloqador bo'lgan jihatlar yuzasidan ko'plab tadqiqot hamda o'rganishlar olib borilgan bo'lsa-da, turli ijtimoiy-demografik guruhlar, jumladan, xotin-qizlar ijtimoiy kayfiyatini o'rganishning o'ziga xos jihatlari deyarli yoritilmagani jamiyatimiz xususiyatlaridan kelib chiqqan holda mazkur ko'rsatkichni o'rganishning metodologiyasini, baholash yo'llari va kriteriyalarini ishlab chiqishning ahamiyatini ko'rsatmoqda.

Xotin-qizlarning ijtimoiy kayfiyatini o'rganish davomida quyidagi holatlarga alohida e'tibor qaratish lozim:

– xotin-qizlarning jamiyatdagi ijtimoiy holati, oʻz hayotidan va mehnatidan qoniqish darajasi, faolligi, asosiy muammolarini oʻrganish hamda mavjud tendensiyalarni tadqiq etish yoki baholashda integral koʻrsatkich (umumlashtiruvchi, umumiy) sifatida namoyon boʻlish xususiyatini inobatga olish;

– xotin-qizlarning ijtimoiy kayfiyatini baholash jarayonida, eng avvalo, jamiyat hamda oiladagi ijtimoiy himoyalanganlik darajasi, ikkinchidan, hayotiy maqsadlarini amalga oshirish imkoniyatlari va uchinchidan, ijtimoiy faollik darajasini aniqlovchi koʻrsatkichlarga alohida urgʻu berish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis Senatining 20-yalpi majlisidagi nutqi. <https://kun.uz/news/2019/06/22/shavkat-mirziyoyevning-oliy-majlis-senatining-20-yalpi-majlisidagi-nutqi>
2. Social mood. Socionomic theory. <https://socioconomics.net/2011/04/socionomic-causality/>
3. Асланова О.А. Социальное самочувствие пожилых людей в регионе: социологическая оценка (на примере Краснодарского края). Автореф. дис. ... канд. социолог. наук. – Москва – 2012. – 23 с.
4. Волновая теория Эллиотта. <https://ru.wikipedia.org/wiki>
5. Дарган А.А. Социальное самочувствие людей с инвалидностью: Автореф. дис. ... канд. социолог. наук: 22.00.04 / Дарган Анна Александровна; [Место защиты: Сев.-Кавказ. федер. ун-т]. – Ставрополь, 2013. – 25 с.
6. Клиценко М.В. Социальное самочувствие населения города Хабаровска. Дис. ... канд. социолог. наук. Хабаровск – 2017. – 153 с.
7. Лебеденко О.А. Социальное самочувствие студентов – социальных степендиантов в условиях модернизации Российского общества: социально – философский анализ. Автореф. дис. ... канд. философ. наук. Ростов-на Дону, 2011. – 23 с.
8. Осинский И.И., Бутуева З.А. Социальное самочувствие: понятие, факторы формирования и показатели измерения. Вестник Бурятского Государственного Университета. 14/2015. – С. 39-40. <https://cyberleninka.ru/article/n/sotsialnoe-samochuvstvie-ponyatie-factory-formirovaniya-i-pokazateli-izmereniya>
9. Романова И.В. Социальное настроение одиноких женщин посттрудоового периода жизни (социологическое исследование на территории Забайкалья) Вестник ЧитГУ № 10 (77) 2011. – С 124. <https://cyberleninka.ru/article/n/sotsialnoe-nastroenie-odinokih-zhenschin-posttrudovogo-perioda-zhizni-sotsiologicheskoe-issledovanie-na-territorii-zabaykalya>